



## I S T E ' M O L B O Z O R I

(dastlabki ma'lumot)


2018 yil yanvar-sentyabr

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,6 foizga** oshdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **7,7 % ni** tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan **58,1 % ga** o'sdi.


Shuningdek, viloyat bo'yicha ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi esa joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida **100,7 mlrd so'mga** etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **100,0 foizni** tashkil etdi.

*2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda,  
chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda )*



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (**28,5 foiz**), Karmana tumani (**16,1 foiz**), Qiziltepa tumani (**11,7 foiz**), Zarafshon shahri (**11,6 foiz**) va Xatirchi tumani (**11,4 foiz**) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.


***Shahar va tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda***



## O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning chakana tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,7 foizga** o'sdi va umumiyligi chakana savdo tovar aylanmasining **92,3 foizini** tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiyligi tovar aylanmasining deyarli **650,0 mlrd.so'mi** uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **17,2 foizni** tashkil etdi.



# ULGURJI TOVAR AYLANMASI

Viloyat bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 2018 yilning yanvar-sentyabr oylari da **1168,1 mlrd.so'mni** yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan **186,2 foizni** tashkil etdi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi **66,6 % ni** tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 martaga o'sdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning ulurji savdo tovar aylanmasi esa **389,6 mlr.so'mga** yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **100,6 foizni** tashkil etdi.

## *2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari(foizda )*

